



Abdiraimova Shaxnoza Abdugappar qizi,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi

TUG‘ILISH SONINING KO‘PAYISHI VA UNING MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaning takror barpo bo‘lishida tug‘ilishning o‘rni asoslangan bo‘lib, O‘zbekistondagi tug‘ilish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Tug‘ilish darajasi bo‘yicha hududlar guruhlariga ajratilib, tug‘ilish ko‘rsatkichlari ortishining maktabgacha ta‘lim tizimiga ta’siri ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aholi, demografik bosim, demografik rivojlanish, oila instituti, oila farovonligi, tug‘ilish, nikoh, maktabgacha ta‘lim.

Аннотация. В данной статье обоснована роль рождаемости в воспроизводстве семьи, проанализированы показатели рождаемости в Узбекистане, сгруппированы регионы по уровню рождаемости и проведен научный анализ влияния роста рождаемости на систему дошкольного образования.

Ключевые слова: население, демографическое давление, демографическое развитие, институт семьи, благосостояние семьи, рождение, брак, дошкольное образование.

Annotation. This article substantiates the role of fertility in family reproduction, analyzes fertility rates in Uzbekistan, grouped regions by birth rate and conducted a scientific analysis of the impact of fertility growth on the preschool education system.

Keywords: population, demographic pressure, demographic development, family institution, family welfare, birth, marriage, preschool education

Kirish. O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida katta ahamiyat berila boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoniga 1-ilova bilan “2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va

ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish” bo‘yicha Milliy dastur tasdiqlandi¹.

Milliy dasturni amalga oshirishning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi “oila institutini mustahkamlash” deb nomlanib, unda “demografik rivojlanishni rag‘batlantirish va oila farovonligi darajasini oshirish” alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.

Oilaning muntazam davom etishi, ya’ni uning takror barpo bo‘lish jarayoni, avvalo, oilaning demografik faoliyati – tug‘ilishga bog‘liq. Jamiyatda

¹ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022 y., 06/22/87/0198-son.

oila soni bir xil saqlanib qolishi uchun har bir oila o'rtacha ikkitadan farzand ko'rib, ularni balog'at yoshiga yetkazishi kerak. Agar oilada o'rtacha to'rt farzand kamolga yetsa, har bir oila o'z o'rniga ikkitadan oila qoldirgan bo'ladi. Demak, har bir davlatda oilaning takror barpo bo'lish jarayoni shu davlatda istiqomat etayotgan aholining tug'ilish darajasiga bog'liq. Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda oilalar soni tez ko'payib boradi.

Tug'ilish ikki jarayonga bog'liq. Birinchisi, oilaning eng muhim demografik vazifasi avlod yaratish, inson zotini davom ettiruvchi jarayon bo'lsa, ikkinchisi, oilaning takror barpo bo'lishi, uning muntazam davom etishini ta'minlovchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston aholi soni yuqori sur'atda o'sib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Bu o'sish, asosan, tabiiy ko'payish hisobiga amalga oshmoqda, ya'ni ko'p yillar davomida mamlakatimiz aholisi tug'ilish darajasining yuqoriligi hisobiga ko'paymoqda.

Asosiy qism. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillik yillari bo'yicha 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida tug'ilganlar mutlaq sonining eng yuqori ko'rsatkichi qayd etilgan.

1991-yilgacha umumiy tug'ilish koeffitsienti muntazam o'sib kelgan va o'sha yilda 35,1% ni, keyingi yillardan esa ushbu ko'rsatkich sur'atlari asta pasayib, 2003-yilda eng past sur'atni, ya'ni 19,9% ni tashkil etgan².

Aytish joizki, agar 1991-yilda respublika bo'yicha 723,4 mingta tug'ilish qayd etilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 905,2 ming nafarni tashkil etdi.

Tahlillarga ko'ra, 1991–2000-yillarda tug'ilganlar mutlaq soni qisqargan, keyingi yillarda esa ortgan.

Mustaqillikning birinchi o'n yilligida tug'ilganlar sonining qisqarishi, bu davrda tug'ilgan kam sonli aholining bugungi kunda yoshlar guruhiga o'tishi aholi tarkibida bu guruh sonining kamayishiga olib keldi.

Mustaqillikning birinchi o'n yilligida tug'ilganlar sonining qisqarishi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

– nikohga kirish yoshining uzayishi (erkaklarda 26,6 yosh, ayollarda 22,7 yosh);

– aholining tug'ish o'rtasidagi davriylikni cho'zish hisobidan sog'lom bolani dunyoga keltirish va tarbiyalashga yo'naltirish, ayollar uchun qulay – 20-30 yoshda bola tug'ishini rag'batlantirish;

– aholining kontratsepsiya vositalari, jumladan, bepul beriladigan vositalardan foydalanishini ancha kengaytirish. Istalmagan homiladorlikning oldini olish uchun kontratsepsiya vositalaridan foydalanishni keng targ'ib qilish;

– oilalar moddiy farovonligining oshishi tufayli ayollarning o'rta bola tug'ish bo'yicha reproduktiv qarashlarining o'zgarishi;

– aholining tashqi mehnat migratsiyasi, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligining oshishi;

– tug'ilishning kamayishiga butun jahonda davom etayotgan tendensiyalarning ta'siri³.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, 2005–2021-yillar mobaynida har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilganlar soni 20,3 nafardan 25,9 nafarga ko'paygan. Hududlar kesimida olib qaralganda, tug'ilish darajasi Surxondaryo (29,9%), Jizzax (29,0%) va Qashqadaryo (28,8%) viloyatlarida yuqori bo'lgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida tug'ilish koeffitsientlari dinamikasi

Hududlar nomi	Tug'ilishning umumiy koeffitsienti, promille		Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti, birlik	
	2010-yil	2021-yil	2010-yil	2021-yil
O'zbekiston Respublikasi	22	25,9	2,342	3,173
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23,3	20,8	2,345	2,486
Andijon viloyati	24,1	26,3	2,468	3,324
Buxoro viloyati	21,9	22	2,134	2,748
Jizzax viloyati	25,2	29,0	2,455	3,384
Qashqadaryo viloyati	26,2	28,8	2,520	3,382
Navoiy viloyati	22	26	2,230	3,188
Namangan viloyati	24	27,6	2,277	3,370
Samarqand viloyati	25	27,7	2,449	3,329

³ Abduramanov X.X. Oilaning demografik rivojlanish tendensiyalarini baholash // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 6, noyabr-dekabr, 2018-yil. – B. 4-5.

² Otaqozziyeva S.A. Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. – №2. – Toshkent, 2020. – 130 b.

Surxondaryo viloyati	27	29,9	2,544	3,467
Sirdaryo viloyati	22,8	26,7	2,254	3,054
Toshkent viloyati	21,1	24,6	2,234	3,169
Farg'ona viloyati	22,8	25,7	2,383	3,212
Xorazm viloyati	22,8	22,3	2,329	2,659
Toshkent shahri	18	23,9	1,992	3,023

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xalqaro mezonlar bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsienti qiymati 16,0 ‰ gacha bo'lsa – tug'ilish darajasi “past”, 16,0 – 24,9 ‰ – “o'rtacha”, 25,0 – 29,9 ‰ – “o'rtachadan yuqori”, 30,0 – 39,9 – “yuqori”, 40,0 ‰ va undan yuqori – “juda yuqori” hisoblanadi⁴. Mazkur mezon bo'yicha 2021-yilda O'zbekiston tug'ilish darajasi “o'rtacha yuqori” bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirdi.

2015-yilda respublikaning 10 ta hududida tug'ilish darajasi “o'rtacha”, 3 ta hududida (Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari) “o'rtachadan yuqori” bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda yana 6 ta hudud (Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari) “o'rtachadan yuqori” hududlar qatoriga o'tib, bu toifadagi hududlar soni 9 taga yetdi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarining tug'ilishning umumiy koeffitsienti bo'yicha tasnifi

Daraja tavsifi, ‰	Yillar		
	2000	2015	2021
Past (16,0 gacha)	Toshkent shahri	-	-
O'rtacha (16,0 – 24,9)	Qoraqal-pog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Toshkent va Xorazm viloyatlari	Qoraqal-pog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona, Toshkent va Xorazm viloyatlari, Toshkent shahri	Qoraqal-pog'iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri

⁴ Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 188 b.

O'rtachadan yuqori (25,0 – 29,9)	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari	Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari	Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlari
Yuqori (30,0 – 39,9)	-	-	-
Juda yuqori 40,0 va undan yuqori	-	-	-

Manba: jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida guruhlashtirilgan.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Baxmal (31,4 ‰), Zarbdor (30,4 ‰), Chiroqchi (33,3 ‰), Urgut (30,3 ‰), Bandixon (31,8 ‰), Bektemir (31,1 ‰) tumanlari va Temiz shahrida (30,5 ‰) tug'ilish darajasi “yuqori” hududlar qatoridan joy olgan bo'lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga bu toifadagi tuman (shahar)lar soni 24 taga yetdi.

O'zbekistonda tug'ilganlar mutlaq sonining ortishi 20–29 yoshdagi ayollarning ulushi yuqoriligi; tuzilayotgan nikohning yuqori darajasi, shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida ro'yxatga olinmagan nikohlar sonining ortishi; qizlarda nikoh yoshining kichikligi; nikohning barqarorligi bilan izohlanadi.

Birlashgan Millatlar tashkiloti tavsiyanomasi bo'yicha, aholining me'yorida takror barpo bo'lishi uchun tug'ilishning umumiy koeffitsienti 20,0 promille, aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,3 foiz bo'lishi yetarli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida tug'ilish koeffitsienti 24,6 promilleni tashkil etib, chegaraviy qiymatdan 4,6 promillega ortiq.

Respublikada bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni 3,1 nafarni, shahar joylarida 2,9 nafarni, qishloq joylarida esa 3,4 nafarni tashkil etadi.

Tug'ilishning maktabgacha ta'lim tizimiga ta'siri.

Oilalar va tug'ilishlar sonining ortishi, birinchi navbatda, ta'sir etadigan ijtimoiy sohalaridan biri – maktabgacha ta'lim tizimidir. Mamlakatda

yuqori salohiyatli inson kapitalini shakllantirishda ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblagan maktabgacha ta'lim tizimi mamlakatimizda yuqori tug'ilish sur'atlari kechayotgan hozirgi davrda qator muammolarga duch kelmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilish koeffitsienti 1,0 foizga ortganda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi o'rtacha 3,3 foizga kamayadi⁵.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni qamrab olish tizimi hamon qaniqarli darajada emas. Bunga mavjud infrutuzilma obyektlarining yetarli emasligi hamda noproportional joylashuvi (hududlar miqyosida), sohada kadrlar yetishmasligi, eng muhimi, 2–3 yoshdagi aholi guruhlarining (2018–2021-yillarda tug'ilgan bolalar) yildan yilga sezilarli ortib borayotgani tizimga yuqori bosimni vujudga keltirmoqda.

So'ngi yillarda mamlakat hukumati tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va tubdan takomillashtirish borasida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda amaliy chora-

tadbirlar ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 4312-son qarori⁶ va u bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi", shuningdek, 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan qator maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingani ayni muddao hisoblanadi.

Ushbu hujjat bilan tizimda bolalar qamrovini oshirish, davlat-xususiy sherikchilik, nodavlat va oilaviy muassasalar sonini oshirish, bolalarni maktabga tayyorlash hamda xodimlar malakasini oshirish kabi usutvor masalalarga e'tibor qaratildi. Hujjatga ko'ra, prognozlar 2030-yilga borib bolalarni maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olish 80% dan ortishi belgilangan bo'lib, o'sha paytda 3–7 yoshdagi bolalar soni 3,4 mln dan ortiqni tashkil etishi kutilayotganini ko'rsatmoqda.

Biroq ushub hujjat 2019-yilda, ya'ni pandemiyadan oldin e'lon qilingani, mamlakatning o'sha paytdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sur'ati hamda demografik jarayonlar tendensiyasi hozirgi holatdan biroz farq qilishini unutmaslik lozim.

⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

⁵ Abduramanov X.X. O'zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishning ko'p omilli tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. 2020 yil 2-son. – Toshkent, 2020. – 142-b.

3-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar kesimida						
		2020	2021	2022	2023	2024	2025	2030
1.	Maktabgacha ta'lim (MT) yoshidagi bolalar (3-7 yosh) (<i>ming kishi</i>)	2 770,1	2 817,7	2 883,0	2 948,5	3 013,9	3 079,4	3 407,1
2.	Maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan qamrab olingan bolalar soni (<i>ming kishi</i>)	1 646,9	1 924,1	2 017,4	2 110,0	2 202,6	2 294,6	2 754,5
3.	MT yoshidagi bolalar sonining o'sish sur'ati (<i>ming kishi</i>)	282,6	277,2	93,3	92,6	92,6	91,9	91,7
4.	Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari soni (<i>ming kishi</i>)	147,7	172,3	181,0	189,5	197,9	206,2	247,7
5.	Shundan oliy ma'lumotlilar (<i>ming kishi</i>)	41,9	49,4	52,9	63,6	59,8	79,9	82,6
6.	3–7 yoshdagi bolalarni qamrab olish darajasi (%)	59,5	68,3	70,0	71,6	73,1	74,5	80,8
7.	MTlarni qurish va jihozlash uchun zarur bo'ladigan pul mablag'lari (mln.so'm)	12 716,9	12 473,6	4 198,1	4 168,6	4 166,8	4 137,8	4 126,0
8.	Bolalarning MTlarda tarbiyalanishi uchun talab qilinadigan mablag'lar (mln so'm)	5 764,3	6 734,5	7 061,0	7 385,2	7 709,3	8 031,1	9 640,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori asosida tayyorlandi.

Avvalambor, pandemiya yillik iqtisodiy o'sish, umuman, davlat va aholining daromadlariga keskin ta'sir etganini, hukumat o'z oldiga qo'ygan aksariyat strategiyalarda ko'zda tutilgan maqsadli parametrlarga erishishida fors-major holati yuzaga keldi. Natijada maktabgacha ta'lim strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadli parametrlarga erishishda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Jadvaldan ko'rish mumkinki, yuqori o'zgarishlar, asosan, 2020–2021-yillarda qayd etilib, undan so'ng esa biroz mo'tadil ko'rsatkichlarga o'tish kutilgan.

Shu o'rinda, aholining so'nggi 5 yildagi tug'ilish sur'ati orqali maktabgacha ta'lim tizimiga bosimni, shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jami soni hamda yillik o'sish sur'atini 2020-yildagi aholi yosh guruhlariga nisbatan kogort-komponent usulida hisoblangan prognoz ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqoridagi hujjatda qayd etilgan ko'rsatkichlardagi farqlarni ko'rish mumkin. Jumladan, 2018-yilda tug'ilganlar soni 768,5 mingdan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 815,0 ming, 2020-yilda 841,8 ming, 2021-yilda esa 905 ming tug'ilish qayd etilgan. Joriy yildagi o'sish sur'atlari hamda ekspertlarning dastlabki xulosasiga ko'ra, yil oxirigacha bir million atrofida tug'ilishlar qayd etilishi kutilmoqda. Bu holat yaqin ikki yilda tizim yoshiga yetadigan bolalar soni maktab yoshiga yetgan bolalarga nisbatan 100–150 ming nafar ko'p bo'lishini anglatadi. Chunki 3–7 yoshdagi bolalar, ya'ni 2015–2016-yillarda tug'ilganlar soni 700 ming atrofida bo'lgan.

Aholi yosh guruhlarining o'lim va migratsion koeffitsientlarga qaramay, hisoblangan (kogort-komponent) jadvalda yosh guruhlarining siljishi natijasida maktabgacha ta'lim tizimiga kirib keladigan bolalar soni hamda oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlaridan ko'rish mumkinki, tug'ilish sur'atiga nisbatan bu yoshdagi bolalarning tizimdagi o'sish biroz yuqoriligicha qolmoqda. Bunga esa asosiy sabablardan biri – 1 yoshgacha go'daklar o'limining keyingi yoshdagi bolalarga nisbatan birmuncha yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Misol uchun 2020-yil davomida salkam 6500 nafar 1 yoshgacha go'daklar vafot etgan bo'lsa, 1870 nafar 1 yoshdagi chaqaloqlar olamdan o'tgan. Xuddi shu ko'rsatkichlar 2018-yil davomida 6450:1590 nisbatni tashkil etgan edi. Ushbu raqamlardan ko'rish mumkinki, mamlakatimiz aholisining

dastlabki yosh guruhlaridagi o'lim nisbati bir necha baravarga yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuqorida ta'kidlanganidek, qisqa muddatlarda maktabgacha ta'lim tizimida yuqori bosim sifatida o'z aksini topadi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim bilan qamrov aholining real ehtiyojini qondirmayapti. Xususan, 3–6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi qamrovi 62 foizni (tug'ilish darajasi eng yuqori bo'lgan Surxondaryoda – 45,1 foizni, Qashqadaryoda – 42,9 foizni) tashkil qiladi. Tug'ilish sonining ortishi hisobiga maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan demografik bosim yuqoriligicha qolmoqda.

Demografik o'sish ta'lim muassasalari va kadrlar yetishmasligi muammosini ham vujudga keltiradi. Ayniqsa, tug'ilish va aholi o'sishi yuqori bo'lgan, shuningdek, yangidan tashkil etilayotgan shaharlardagi ko'p qavatli uylardan iborat massivlarda (Toshkent shahridagi Yangihayot va Samarqanddagi Qorasuv) maktabgacha ta'lim muassasalarini qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'ngi yillarda bunday tadbirlar uchun davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori ham mos ravishda oshirib borilmoqda. Misol uchun, -ilgi davlat budjeti xarajatlar qismida maktabgacha ta'limga 4,8 trln so'm ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, joriy yilda dastlab 5,5 trln so'm, keyinchalik qo'shimcha ravishda 1 trln so'mdan ortiq mablag' davlat-xususiy sheriklik asosidagi ta'lim muassasalarini tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar berish hamda bolalar qamrovi ortganligi sababli, qo'shimcha subsidiya ajratish belgilandi.

Maktabgacha ta'lim tizimi kabi o'rta va oliy ta'lim tizimlarida ham demografik jarayonlarning ta'siri, birinchi navbatda, tug'ilish va aholi o'sish sur'atlarining ortishi orqali bosim vujudga keladi. Bundan tashqari, aholi yosh guruhlaridagi siljishlar ham ushbu tizimlarda islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tizimidan farqli o'laroq, keyingi tizimlarda dastlabki demografik jarayonlar ta'siri ma'lum davr, aniqrog'i 6-7 yildan so'ng, oliy ta'lim bosim esa 17-18 yildan so'ng, ya'ni tug'ilganlarning ta'lim bosqichlari yoshiga o'tishi bilan vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022 y., 06/22/87/0198-son.
2. Otaqo'ziyeva S.A. Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisi tug'ilish jarayonidagi o'zgarishlar // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. – №2. – Toshkent, 2020. – 130 b.
3. Abduramanov X.X. Oilaning demografik rivojlanish tendensiyalarini baholash // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 6, noyabr-dekabr, 2018-yil. – B. 4-5.
4. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 188 b.
5. Abduramanov X.X. O'zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishning ko'p omilli tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. 2020 yil 2-son. – Toshkent, 2020. – 142-b.
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.



Furqat Sodiqov,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK: UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning dunyo miqyosidagi holati, ushbu muammoning oqibatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari hamda boshqa manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishning “RESPECT” strategiyasi hamda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ayrim mexanizmlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, zo'ravonlik, “RESPECT” strategiyasi, gender, ayollar, BMT, kurashish, tenglik, huquq.

Аннотация. В данной статье анализируется глобальная ситуация насилия и угнетения в отношении женщин. Последствия этой проблемы изучаются на основе информации Организации Объединенных Наций, Всемирной организации здравоохранения и других источников. Также освещается стратегия «RESPECT» по борьбе с насилием в отношении женщин и некоторые механизмы борьбы с этой проблемой в Соединенных Штатах Америки.

Ключевые слова: женщины, насилие, стратегия “RESPECT”, гендер, женщины, ООН, борьба, равенство, права.

Annotation. This article analyzes the global situation of oppression and violence against women. The consequences of this problem are studied on the basis of information of the United Nations, the World Health Organization and other sources. It also highlights the RESPECT strategy to combat the violence against women and some [mechanisms to counter](#) this problem in the United States of America.

Key words: women, violence, RESPECT strategy, gender, women, UN, struggle, equality, rights.

Kirish. Zamonaviy ko'p qutbli dunyoda jamoatchilik munosabatlari ijtimoiy normalar va global jarayonlar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Har bir shaxsning ijtimoiy roli, yoshi, oilasi, kasbiy va jinsiy xususiyatlari asosida shakllanadi. Jahonda gender tengligi siyosati keng ommalashayotgan bir vaziyatda dunyoning turli mamlakatlarida keng qo'llaniladigan ayollarga

nisbatan zo'ravonlik muammosi dolzarb bo'lib kelmoqda.

BMT tomonidan 1993-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiyada “ayollarga nisbatan zo'ravonlik erkaklar va ayollar o'rtasidagi tarixan teng bo'lmagan kuch munosabatlarining namoyon bo'lishi bo'lib, bu ayollarning hukmronligi va

erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan kamsitilishiga olib keldi, shuningdek, har tomonlama rivojlanishiga to'sqinlik qiladi", deyiladi¹.

Asosiy qism. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xotin-qizlarga jismoniy, jinsiy, ruhiy zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, ushbu jinsga nisbatan har qanday zo'ravonlik harakatini, jumladan, bunday xatti-harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash yoki o'zboshimchalik bilan ozodlikdan mahrum qilish holatlari jamoat yoki shaxsiy hayotda bo'lishidan qat'i nazar, ayollarga nisbatan zo'ravonlik deb ta'riflaydi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni nishonlanadi. Ushbu sana 1999-yilning 17-dekabrida BMT Bosh Assambleyasining qarori bilan ta'sis etilgan². Shu munosabat bilan har yili dunyo bo'ylab 25-noyabrdan 10-dekabr gacha jamoatchilikning faol ishtirokida "16 kun zo'ravonliksiz!" shiori ostidagi tadbirlar o'tkaziladi.

O'zbekistonda ham ayollarni himoya qilish, ularning turli zo'ravonliklar qurboni bo'lmashligi uchun kurashish dolzarb ahamiyatga ega. Joriy yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun³ aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan 2000-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davrda 161 mamlakat va hududlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishi ma'lumotlarining 2018-yildagi tahlili shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab deyarli har uchinchi yoki ayollarning 30 foizi, hayoti davomida o'zining hayotdagi sherigi, eri yoki uchinchi shaxs tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka

uchragan⁴. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan barcha ayollarning to'rtidan biridan ko'prog'i hayotida o'zaro munosabatlarda kamida bir marta (15 yoshdan boshlab) jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchragan. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik sodir etilganini aniqlash maqsadida dunyo miqyosida o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, Tinch okeanining G'arbiy mintaqasida 20 %, Yevropa mintaqasidagi yuqori daromadli mamlakatlarda 22 %, Amerika mintaqasida 25 %, Afrika mintaqasida 33 %, Sharqiy O'rta yer dengizi mintaqasida 31% va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida 33 % ni tashkil etadi⁵.

2018-yilda dunyoda 15–49 yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning sodir etilganligi ko'rsatkichlari tahlil qilinsa, demokratik prinsiplar mustahkam va ayollarning huquqiy bilimlari yuqori bo'lgan davlatlarda buning aksi bo'lgan mamlakatlarga nisbatan ko'rsatkichlar ancha ijobiy ekanligini ko'rish mumkin (1-rasm)⁶.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonni qamrab olmagan. Chunki mazkur ijtimoiy so'rov O'zbekistonda o'tkazilmagan.

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy yoki jismoniy zo'ravonlikning omillari.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklar shaxslar, oilalar va jamoalar darajasida, shuningdek, butun jamiyatda mavjud bo'lgan omillar tufayli yuzaga keladi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklar uchun xavf omillari quyidagilardan iborat (1-jadval)⁷:

Ayollarga nisbatan zo'ravonlik ildizida gender tengsizligi va bunday zo'ravonlikka yo'l qo'yadigan me'yorlar yotadi.

¹ Декларация об искоренении насилия в отношении женщин. Принята резолюцией 48/104 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 года // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/violence.shtml

² O'zbekistonda Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni keng nishonlanmoqda // <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekistonda-xalqaro-ayollarga-nisbatan-zo-ravonlikka-barha-25-11-2019>

³ "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 561-son Qonuni, 2019-yil 2-sentabr.

⁴ Violence against women (Ayollarga nisbatan zo'ravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

⁵ <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

⁶ Lynmarie Sardinha, Mathieu Maheu-Giroux, Heidi Stokl, Sarah Rachel Meyer, Claudia Garcia-Moreno. Global, regional and national prevalence estimates of physical or sexual or both intimate partner violence against women in 2018. www.the-lancet.com. volume 399. February 26, 2022. p.809.

⁷ Violence against women (Ayollarga nisbatan zo'ravonlik) // <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>